

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

“FUQAROLARNING BANKLARDAGI OMONATLARINI HIMOYALASH KAFOLATLARI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNING 10- MODDASIGA O‘ZGARTISHLAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2008-yil 18-dekabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2009-yil 27-martda ma’qullangan

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi 360-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 4-5, 70-modda) **10-moddasiga** quyidagi o‘zgartishlar kiritilsin:

1) **birinchi qism** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Fuqarolarning omonatlari bo‘yicha haq to‘lash bankning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan oraliq tugatish balansida aks ettirilgan omonatlarning qoldig‘idan kelib chiqqan holda bank va Fond mablag‘lari hisobidan to‘liq hajmda amalga oshiriladi”;

2) **ikkinchi qism** chiqarib tashlansin;

uchinchi va **to‘rtinchi qismlar** tegishincha ikkinchi va uchinchi qismlar deb hisoblansin.

2-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2009-yil b aprel,
O‘RQ-203-son

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 15-son, 173-modda)